



UO'K: 101.1

ABU ABDULLOH RUDAKIYNING HAYOTI VA FAOLIYAT YO'LI, UNING MUSULMON SHARQIDAGI IJTIMOY-MADANIY MUHITNING SHAKLLANISHIDAGI O'RNI**ЖИЗНЕННЫЙ И ТВОРЧЕСКИЙ ПУТЬ АБУ АБДУЛЛАХА РУДАКИ, ЕГО РОЛЬ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ СРЕДЫ МУСУЛЬМАНСКОГО ВОСТОКА****THE LIFE AND CREATIVE PATH OF ABU ABDALLAH RUDAKI, HIS ROLE IN SHAPING THE SOCIO-CULTURAL ENVIRONMENT OF THE MUSLIM EAST****Boymirzayev Qahramon Hasanboyevich** 

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada musulmon sharqidagi tarixiy, ijtimoiy-madaniy shart-sharoit va ijtimoiy muhit, Abu Abdulloh Rudakiyning axloqiy qarashlarida adolat talqinini o'rganishning ilmiy-metodologik asoslari o'rganilgan. Shuningdek, Abu Abdulloh Rudakiyning hayoti va faoliyat yo'li, uning axloqiy qarashlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассматриваются исторические, социокультурные условия и социальная среда на мусульманском Востоке, научно-методологические основы изучения трактовки справедливости в нравственных воззрениях Абу Абдуллы Рудаки. Также проанализирован жизненный и карьерный путь Абу Абдуллы Рудаки, факторы, повлиявшие на формирование его нравственных взглядов.

Abstract

The article examines the historical, socio-cultural conditions and social environment in the Muslim East, the scientific and methodological bases of studying the interpretation of justice in the moral views of Abu Abdullah Rudaki. Also, the life and career path of Abu Abdullah Rudaki, the factors that influenced the formation of his moral views were analyzed.

Kalit so'zlar: musulmon sharqi, tarixiy, ijtimoiy-madaniy shart-sharoit, ijtimoiy muhit, axloqiy qarashlar, falsafiy, adolat, ilmiy-metodologik asos, faoliyat, Abu Abdulloh Rudakiy, tarixiy-falsafiy tahlil.

Ключевые слова: Мусульманский Восток, исторические, социокультурные условия, социальная среда, нравственные взгляды, философия, справедливость, научно-методологические основы, деятельность, Абу Абдулла Рудаки, историко-философский анализ.

Key words: Muslim East, historical, socio-cultural conditions, social environment, moral views, philosophical, justice, scientific-methodological basis, activity, Abu Abdullah Rudaki, historical-philosophical analysis.

KIRISH

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo'yib, barcha sohalarda o'zgarish va yangilanishlar jadallashib borayotgan sharoitda ilm-fan tadqiqotlariga ham yangicha yondashuvlarni olib kirish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Shu bois, fanlarning har bir tarmoqlarida fundamental tadqiqotlarni olib borish, yangicha xulosalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ayniqsa, o'rta asr sharq allomalarining axloqiy qarashlariga doir tadqiqotlarni chuqurlashtirish, arab-musulmon sivilizatsiyasiga bugungi kun nuqtai nazaridan yondashish va kunimizdagi ahamiyatini yoritish ustuvorlik kasb etadi. Shuning uchun ham falsafa tarixiga doir tadqiqotlarni kengaytirish, unda sharq axloqshunosligiga doir izlanishlarni mantiqiy izchilligini ta'minlash zarur. Bu orqali bugungi kunda sharq falsafasining asl insonparvarlik mohiyatini, ilmiy qadrllovchi jihatlarni ochib berish majburiyatini bajarish mumkin bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

IX-XI asrlarda Musulmon sharqidagi tarixiy, ijtimoiy-madaniy shart-sharoit va ijtimoiy muhit, Abu Abdulloh Rudakiyning axloqiy qarashlarida adolat talqinini o'rganishning ilmiy-metodologik asoslari A.Ashraf (AQSH), K.Y.Bosvort (Angliya), Frantsua de Blois (Frantsiya), Rypka (Niderlandiya), Dabashi, Hamid (AQSH), E.G.Braun (Angliya), R.M.Chopra (Hindiston), Sautgeyt, Minoo S. (Eron), A.Boboxonov, A.Zunnunov, N.Komilov, U.Mahkamov, U.Uvatov,

FALSAFA

Sh.M.Shomuhamedov, R.Komilov, E.Yusupov, G.Navro'zova, O.Musurmonova, I.Choriev, S.Nishonova, Sh.Olimov, K.Y.Qilicheva, G.Izbullaeva, S.U.Xodjanijazov kabi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

O'rta Osiyo xalqlari ma'naviy madaniyatining o'sishida islom madaniyatining ahamiyati katta bo'lgan. Islom faqat dingina emas, balki yangi ma'naviy yo'nalish sifatida ham butun madaniy jarayonga, barcha musulmon mamlakatlari orasida ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy aloqalarning kuchayishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda ma'naviyatda hurfikrlilik, har qanday bilim, ilm-fanga hurmat, diniy oqimlar erkinligi ustivorlik qilgan. Diniy va dunyoviy ilmlar o'zaro uzviy bog'liq holda rivoj topib bordi. Qadimgi Yunon, Hind va boshqa yurtlar an'analaridan, bilim manbalaridan ham keng ijodiy foydalanildi.

IX-XII asrlarda Movarounnahrda ilm-fan yuksaldi, hozirgi zamon fanining ko'plab tarmoqlari va yo'nalishlariga chinakam poydevor yaratildi. Xususan, matematika, algebra, astronomiya, tibbiyot, geologiya, geodeziya, jug'rofiya, falsafa singari dunyoviy fanlarning tamal toshi tom ma'noda shu davrda qo'yildi.

IX-XII asrlar adabiy jarayonining rivojiga jiddiy hissa qo'shgan, badiiy so'z qadrini yuksakka ko'targan daho adiblar to'g'risida so'z yuritganda Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg'ariy, Yusuf xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Abu Abdulloh Rudakiy, Abulqosim Firdavsiy, Nosir Xusrav singari aziz siymolar nomlari ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Ularning har birining mangukka muhrlangan hayotbaxsh ijodi necha asrlar osha hamon kishilar shuuri, qalbiga estetik huzur, quvonch bag'ishlab, ularni yuksak orzu, maqsadlar sariilhomlantirib keladi.

Abu Abdulloh Ja'far Rudakiy taxminan hijriy 860-yilda Samarkand yaqinidagi Panjrudak qishlog'ida, dehqon oilasida tug'ilgan. Rudakiyning tavallud topgan joyining Rudak qishlog'i ekanligini Sam'aniy va Yoqut Xamaviy asarlaridan bilish mumkin.

Rudakiy alohida qobiliyat sohibi bo'lib, «sakkiz yoshida Qur'onni xatm qilib, qorilikka o'tgan va she'r ham ijod qila boshlagan. Chiroyli ovozi tufayli ashula aytish va ud asbobini chalishga kirishib, bu san'atda mahorat ko'rsatdi» [1]. Yosh iste'dodning ovozasini eshitgan Nasr ibn Ahmad uni Buxoroga-somoniylar saroyiga da'vat qiladi. Uning iste'dodi Buxoroda nash'u namo topadi. Rudakiyning basirligi to'g'risida manbalaridaturlik fikrlar yuradi: bir xillari shoirning onadan ko'r tug'ilganligini ta'kidlasalar, ikkinchilari Buxoro amiri qarmatlikda ayblab, uning ko'ziga mil tortganligi haqida ma'lumot beradilar. Shoirning tabiat manzaralarini hayratlanarli darajada yorqin tasvirlaganidan kelib chiqib, ko'pchilik uning tug'ma ko'r bo'lganligiga ishonmaydi. 1956-yili shoir kalla suyagini tekshirib ko'rgan antropolog-haykaltarosh M.Gerasimov ko'z kosasida qolgan izlardan shoirning ko'zi kuydirilib ko'r qilinganligini aniqladi.

Adabiy-tarixiy manbalar shoir merosini 700 mingdan 1 million 300 ming misragacha ko'rsatishadi. Ba'zilar esa undan yuz jild meros qolgan deyishadi. Afsuski, bizga qadar bu muazzam merosning juda oz qismi yetib kelgan. 1956-yili Rudakiyning 1100-yilligi munosabati bilan uning parokanda she'rlari bir yerga jamlanganda 1840 misrani tashkil etgan edi. 1957-yili shoir she'rlari zabardast mutarjim va forsiy adabiyot bilimdoni Munirxon Muinzoda tarjimasida o'zbek tilida ham bosilib chiqadi.

Keyinchalik fors-tojik so'z san'atining yirik tadqiqotchisi va tarjimoni Shoislom Shomuhamedov tarjimasida Rudakiy asarlari yana ikki marta nashr etildi [12]. Sadridin Ayniy: «Ustod Rudakiy o'z she'rlaridan devon tuzgan dastlabki shoirdir», – deb ma'lumot beradi [2]. «Bo'yi jo'yi Mo'liyon oyad hame» («Mo'liyon arig'ining bo'yi kelmoqdadir») misrasi bilan boshlanadigan g'azali unga favqulodda shuhrat keltirdi. «Modari may» («Mayning onasi») qasidasi ham mashhur. Buyuk hind eposi «Kalila va Dimna»ni she'riy tarjima qilgan. Ilmu adab ahli Rudakiy uslubini «sahli mumtane'», ya'ni «oson mumkin emas», deb baholaganlar. «Rudakiy arablardagi she'r o'lchovi aruzni chuqur o'rganib, o'z xalqi orasida keng tarqalgan qo'shiqlar kuyiga tatbiq qilish natijasida bir necha yangi vaznlar ixtiro qilib, aruzni boyitgan» [3].

Rudakiy va uning safdoshlari forsiy she'riyatda bir necha asr hukmronlik qilgan Xuroson (yoki Turkiston) uslubiga asos solib, uni rivojlantirganlar. Davlatshoh Samarqandiyning yozishicha, «ustod Rudakiy advor va musiqiy fanida tamom quvvatga ega edi... uning ilmlar va ko'p fanlardan voqifligi bordir. She'riyat turlaridan qasida va masnaviyini (ham) yaxshi aytar erdi. Ustod Rudakiy xosu avom oldida baland martabaga erishgan» [4]. Ko'pgina mashhur so'z ustalarining yakdillik bilan e'tirof etishlaricha, Sharqda biror shoir Rudakiychalik shon-shuhratta burkanmagan, ayni paytda,

Rudakiychalik molu davlatga ham ega bo'lmagan. Afsuski, forsiy she'riyatning ustodi, Odam Atosi deb ulug'langan shoir keksalikda qishlog'iga qaytib, ko'r, qashshoq va kasal holda vafot etadi.

Rudakiyni ruboiy janrining yozma adabiyotdagi kashshofi ham deydilar. Chunki janrning barcha talablariga javob beradigan ilk ruboiylar Rudakiy qalamiga mansub. U o'z ruboiylarida ishq mavzusini keng va chuqur yoritib berdi. Albatta, shoir ruboiylarida falsafiy fikrlar va zamondan shikoyat motivlari ham ko'zga tashlanib turadi.

XV asrdan boshlab, Rudakiyning kunyasi boshqacha ko'rinishda qayd etila boshlandi. Davlatshoh Samarqandiy shoirning kunyasini "Ustod Abulxasan Rudakiy" shaklida qayd etadi. Turli tazkirachilar Rudakiyga nisbatan turli kunyalarni qo'llab kelishgan. Volih Dog'istoniy "Riyoz ash-Shuaro" asarida quyidagilarni qayd etadi: "Rudakiyning asl ismi – Abdulloh, kunyasi esa – Abu Ja'far va Abulxasan" [5].

Said Nafisi Rudakiyning kunyasi ikki xil shaklda, Abu Abdulloh va Abulxasan ko'rinishida ekanligini, ta'kidlaydi. Rudakiyga berilgan Fariduddin va Majduddin laqablari keng tarqalmagan va manbalarda tasdiqlanmadi.

Rudakiyning taxallusi masalasida manbalar ikki guruhga bo'linadilar. XV asrgacha bo'lgan manbalar shoir taxallusi uning tug'ilgan joyiga nisbatan berilganligini ta'kidlashadi. Lekin Davlatshoh Samaqandiy va keyingi davrga mansub ba'zi mualliflar, shu jumladan, Ozar Bekdili shoir taxallusi uning rud musiqa asbobini chalishdagi mahoratiga nisbatan berilgan, deb hisoblashadi. Lekin xulosa qilish mumkinki, Rudakiyga taxallusi, uning tug'ilgan qishlog'i nomi asosida berilgan.

Rudakiyning yoshlik davridagi faoliyati va hayoti haqida Muhammad Avfiyning "Lubob al-Albob" asarida ma'lumotlar keltiriladi. Avfiy Rudakiyning shoirlik iste'dodi va uning tug'ma ko'rliigi haqida ta'kidlab o'tadi. Avfiy ma'lumotlariga ko'ra, Rudakiy juda ham iste'dodli bo'lib, sakkiz yoshligidayoq Qur'onni to'liq yod olgan, qiroat qilgan va izchil fikrlashi bilan ajralib turgan. Yosh Rudakiy Abulbaqo Baxtiyordan barbat asbobini chalishni o'rgangan. Shuningdek, u yaxshigina ovozga ega bo'lib, qo'shiq kuylashda ham mashhur bo'lgan. Yuqoridagi manbalardan bilish mumkinki, Rudakiy yoshligidan iste'dodli bo'lib, Qur'on yodlashda, she'r yozishda va musiqa chalishda tengsiz bo'lgan ekan [11].

Arablar istilosiga barham berilib, markazlashgan davlat barpo etilgach, Xuroson-u Movarounnahrda ilm-fan, madaniyat, adabiy hayot, hunarmandchilik, savdo-sotiq gurkirab rivojlanadi. Ayniqsa, davlatning qudrati Amir Nasr II Somoniy davrida yanada oshadi. U shahar-u qishloqlardan, uzoq-yaqindan ahli hunar, ilm-adab ahlini markaz Buxoroga to'playdi, ularning faoliyatiga sharoit tug'dirib beradi, homiylik qiladi. She'riyat va musiqada shuhrati oshgan Rudakiy ham saroyga chaqirtiriladi. Natijada shoir butunlay ijodga sho'ng'ib ketadi: qasidalar, g'azallar, ruboiy, qit'a, dostonlar yaratadi. Uning obro'si ortib, boyligi ham oshib boradi. Bu xususda mashhur tarixchi, adib va adabiyotshunos Muhammad Avfiy «Lubob ul-albob» tazkirasida quyidagilarni yozgan: «Rudakiy usta cholg'uchi bo'lib yetishgach, uning ovozi butun olamga yoyildi. Xuroson amiri Nasr binni Ahmad Somoniy uni o'zining yaqin kishilari qatoriga qo'shgach, u yuqorilab ketdi, uning boyligi esa haddan tashqari ko'payib ketdi... Undan keyingi shoirlar orasida hech kimga bunday boylilik nasib etmadi va hech kim uningdek baxt egasi bo'lolmadi» [11].

Haqiqatan ham, Rudakiy Somoniy amirlarining eng «yaqin nadimi» (Avfiy), xushxon hofiz, mohir mashshoq, nuqtasanj shoir sifatida beqiyos obro'ga ega edi. Somoniy amirlarining barcha safarlarida shoir asarlarining qo'lyozmalari Turondan Xuroson shaharlariga tuyalarga yuklab olib borilib, ko'z-ko'z qilib yurilishi ham buni tasdiqlaydi. X asrning o'rtalariga kelib saroydagi ahvol og'irlashadi. O'z homiysi va do'stlaridan judo bo'lgan, qartayib qolgan, saroy atrofidagi mashmashlardan zada Rudakiy umrining oxirgi yillarini o'z qishlog'ida o'tkazib, 941-yili vafot etgan.

XULOSA

Qadimiy sarchashmalarda Rudakiyning shaxsiyati, taqdiri haqida rang-barang ixtilofli fikrlar mavjud: ayrim olimlar shoir tug'ma ojiz edi, deyishsa, ba'zi tadqiqot va maqolalarda u qand kasaliga giriftor bo'lgani uchun qariganida ko'r bo'lib qolgan, degan fikrni uqtiradilar. Bizningcha, Rudakiyning «modarzod ko'r» bo'lgani haqiqatga yaqin. Zeroki, Homer, Abu A'lo al-Maariy, Ahmad Yugnakiy singari buyuk ijodkorlar ham tug'ma ojizliklariga qaramay, o'z asrlarining yagonasi bo'lganlar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдурахмон Жомий. Баҳористон(Ш. Шомухамедов таржимаси). — Тошкент, 1997. 67—68-бетлар.
2. Айний С. Асарлар. Саккиз жилдлик. 8-жилд(Мақолалар). — Тошкент, 1967. 193-бет.
3. Шомухамедов Ш. Одамийлик иншоси. — Тошкент, 1984.
4. Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони (Б. Аҳмедов таржимаси). — Тошкент, 1981. 23-бет.

FALSAFA

5. Доктор Халил Рахбар “Рудаки”, Техрон, 1354, - Б-55
6. Абдурахмон Рафъат Пошо. Тобеъинлар ҳаёти. (Нашрга тайёрловчилар Бобомурод Эрали, Баҳодир Карим) –Тошкент.: Шарқ, 2018. –Б. 384.
7. Жиҳод Ат-Турбоний. Ислому умматининг 100 буюк шахси. Тарж: Шокир Долимов, Хурсанд Аҳмедов. Istanbul.: Furkan. 2020. –Б. 680.
8. А.Ф.Абдуллаев Илмдан бошқа нажот йўқ.. –Тошкент.: Тошкент ислом университети, 2017. –Б. 156
9. Имом Зарнужий. Илм олиш сирлари. Тарж. З.Шарипов –Самарқанд.: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти, 2018. –Б. 144.
10. Саржоний, Доктор Роғиб. Ислому олам. –Тошкент.: Имом Бухорий халқаро маркази. 2018. –Б. 144.
11. Муҳаммад Садик Хумаюнфар, Рудаки. Техрон,1338, Б-34
12. Инжулар уммони. — Тошкент, 1988. 11—57-бетлар; Абу Абдулло Рудакий. Бобо Тоҳир. Сайланма. — Тошкент, 1994. 7—81-бетлар.